



BRIFING | AVUGUST 2022

O'zbekistondan saboqlar Jamoat tashkilotlari va hukumat hamkorligi orqali xavfsizlik muammolarini hal qilish

O'zbekistonda 2016-yilda ko'p yillik Prezident Islom Karimov vafotidan so'ng jiddiy siyosiy o'zgarishlar yuz berdi, bu umumiy islohot, jumladan siyosat va jamoat tashkilotlari uchun imkoniyat kengaytirish, repressiyani yumshatishga yo'naltirildi. Biroq, bu islohotning sur'ati turlicha bo'lib, bir qator yangi qonunlar va siyosatlarning mahalliy darajada tatbiq etilishida to'siqlarga duch keldi.

Siyosiy, iqtisodiy, mehnat, tashqi siyosat va ijtimoiy sohalarda muhim qadamlar qo'yilganiga qaramay, to'xtab qolgan sa'y-harakatlar, yuqoridan pastga yo'nalishlar va nazoratli boshqaruv uslubidan dalolat beruvchi xavotirli tendentsiyalar mavjud. O'zbekiston yanada ochiq va demokratik jamiyat sari yo'lda davom etishni ta'minlash uchun jamiyat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, shaffoflik va gender asosidagi zo'rvonlik kabi asosiy ijtimoiy muammolarni hal qilish muhim bo'lgan jiddiy pallada turibdi.

Ushbu brifing jamoat tashkilotlarga imkoniyat kengaytirish va hukumat, jamoat tashkilotlari va jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash bo'yicha xulosalar va tavsiyalarni taqdim etadi. Bunga, hamkorlar, davlat organlari va hamjamiyatlar bilan uchta – Jizzax, Namangan va Toshkent viloyatlarida olib borgan izlanishlarimiz asosida nizolarni tahlil qilish, maslahatlashuvlar amalga oshirish va baholash, shuningdek, milliy darajada umumlashtirilgan xulosalar va tavsiyalar mavjud.

O‘zbekistonda 2016 yildan boshlab jamoat tashkilotlarining faollashuvi hayotni yaxshilash uchun hukumat hamkorlari va hamjamiyatlarni jalb qilishga tayyor bo‘lgan yangi tashkilotlar bilan jadal rivojlandi. Yangi va tez o‘zgaruvchan muhit tufayli tinchlik o‘rnatish va mojarolarning oldini olish bilan bog‘liq masalalarda ishlaydigan tashkilotlar hali ham nisbatan yangi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan jamoat tashkilotlar hamkorlarining fikricha, tinchlik o‘rnatish va unga aloqador tamoyillar jamoa, jamoat tashkilotlari va davlat institutlari o‘rtasida yaxshi tushunilmagani bu sohada o‘shish zaruratidan dalolat beradi. Ammo insonlar hayotiga ta‘sir qiladigan turli muhim masalalar: genderga asoslangan zo‘ravonlik va kamsitishni qisqartirish, chegaradosh jamoalar xavfsizligini ta‘minlash, odamlarning zo‘ravon guruhlariga jalb bo‘lish sabablarini bartaraf etish bilan jamiyatni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

“

... tinchlik o‘rnatish va u unga aloqador tamoyillar jamoa, jamoat tashkilotlari va davlat institutlari o‘rtasida yaxshi tushunilmagani – bu sohada o‘shish zarurligini ko‘rsatadi.

”

Jang zonalaridan qaytgan oilalarning reintegratsiya orqali qo‘llab-quvvatlash

Saferworld o‘zining birinchi loyihasini 2018 yilda O‘zbekistonda, Amerika Qo‘shma Shtatlari Tinchlik Instituti tomonidan moliyalashtirilgan va Jizzaxda jamoat xavfsizligi bo‘yicha ishchi guruhlar va tashabbuslarni tashkil etgan. Bu O‘zbekiston hukumatining rehabilitatsiya va reintegratsiya dasturiga qo‘shimcha loyiha bo‘ldi. Xorijdan jang zonalaridan qaytgan oilalarni reintegratsiya qilish loyihasi O‘zbekistonda va chetda katta e‘tiborni tortdi, 2019-yildan buyon hukumat tomonidan xorijdagi oilalarni aniqlash, O‘zbekistonga qaytarish (“Mehr” deb nomlanuvchi maxsus operatsiyalar orqali)¹ va ularni o‘z ichiga olgan katta hajmdagi repatriatsiya va reintegratsiyaga yordam berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish ishlari olib borildi.² Qaytganlar aksariyati ayollar va bolalar. Ular jamoada zo‘ravon guruhlar bilan oldin bo‘lgan aloqalari uchun kamsitishlarga duch kelishadi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ko‘pincha jamoa tomonidan shubha yoki norozilik bilan munosabatda bo‘lishadi.³ Ularning reintegratsiyasi va munosabatlari bilan bog‘liq muammolar hamkorimiz Istiqlol Avlodi tomonidan xabar qilinganidek, ularning qolgan jamoalari bilan muntazam ravishda hamkorligi jamiyat uchun ustuvor masalalar sifatida aniqlanadi.

Bu holat kamsitishning qo‘shimcha qatlamini qo‘shadi – O‘zbekistonda ayollar va yoshlar allaqachon chetga surilgan, ayollar va qizlar zararli gender normalari hamda ta‘lim va ishga joylashishdagi to‘siqlarga uchraydi. Bundan tashqari, etnik yoki diniy o‘ziga xoslik kabi omillarga asoslangan kamsitish va istisno mavjud. Shunday qilib, qaytib kelgan ayollar yoki yoshlar bir-biriga bog‘liq bo‘lgan kamsitishning ko‘plab shakllariga duch kelishlari mumkin, bu ularning ba‘zi imkoniyatlardan (masalan, ta‘lim olish, bank kreditlari yoki qishloq xo‘jaligi uchun yerlar) foydalanishni, tirikchilik qilish yoki jamiyat hayotida ishtirok etishni qiyinlashtiradi. Bu qaytib kelganlar o‘rtasida ixotalanish va chetlanish tuyg‘ularini kuchaytirishi mumkin, bu esa reintegratsiya harakatlarining barbod bo‘lishiga va qaytib kelganlarning zo‘ravon guruhlariga qaytishiga olib kelishi mumkin. Aynan shu bosqichda nodavlat notijorat tashkilotlari qo‘shimcha yordam ko‘rsatish uchun samarali hisoblanadi.



Namangan shahrida Madaniy Maorif mahalla fuqarolar yig‘inining jamoat xavfsizligi bo‘yicha ishchi guruh a‘zolari harakatlar rejasiga tadbirlar kiritish bo‘yicha birgalikda ishlab chiqishmoqda.
© Arif Shamsiddinov/Istiqbolli Avlod Namangan

O‘zbekistonda ayollar boshchiligidagi jamoat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash

Jamiyatlar bilan yanada ko‘proq ishlash va jamoat tashkilotlarini (JT) hamkorlik orqali qo‘llab-quvvatlash zarurligini hisobga olib, 2018-yilda Saferworld hamkori Istiqlol Avlodi bilan hamkorlikda O‘zbekistonda tinchlik platformalarini qurish loyihasini sinovdan o‘tkazdi. Shundan so‘ng 2021–2022 yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari Tinchlik Instituti tomonidan moliyalashtirilgan loyiha amalga oshirildi va bu tashabbus uchta viloyat – Jizzax, Namangan va Toshkentda kengaydi. Oxirgi loyiha O‘zbekistondagi ayollar boshchiligidagi nodavlat notijorat tashkilotlarini jamoat xavfsizligi bo‘yicha nizolarning oldini olish va xavfsizlik bo‘yicha ishchi guruhlar deb ataladigan hamkorlik platformalari tuzuldi va bu ularga jamoalar (ayniqsa, ayollar va yoshlar), mahalliy hokimiyat va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish imkonini berdi.

Bu guruhlariga ko‘pchilik ixtiyoriy ravishda qo‘shildi, shu jumladan, mahalliy davlat idoralar vakillari, mahalla faollari (masalan, mahalla yoki mahalla yetakchilar), ayollar, yoshlar, diniy yetakchilar, etnic guruhlar va militsiya. Treninglar, seminarlar va murabbiylik orqali biz odamlarning ko‘nikmalarini, shu jumladan, tinchlik o‘rnatish konsepsiyalari, jamiyat xavfsizligi, gender va nizolarga sezgir yondashuvlar bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirdik va JT vakillarini guruhlariga o‘z jamoalarida tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha ishlarida hamkor bo‘lishlarini qo‘llab-quvvatladik.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruhlarining joylashuvi hamkor Istiqbolli Avlod tashkilotining hududiy idoralari hamda mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar asosida tanlandi, ular xizmatlar va imkoniyatlardagi ehtiyoj va kamchiliklarni, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini aniqladilar.

2018–2019 yillarda biz Jizzax viloyatida avvalgi boshlang‘ich loyihamiz asosida jamoalarni tanladik va ularda mahalliy darajada aniqlangan muammolarni hal qilish uchun ikkita xavfsizlik bo‘yicha ishchi guruhini tuzishga yordam berdik. Biz Paxtakor tumanini ko‘p millatli jamoa, mehnat migratsiyasiga tayanganligi, infratuzilmaning kamligi va jinoyat miqdori yuqoriligi tufayli tanladik. Aksincha, Zarbdor esa asosan monoetnik, ammo aholining katta qismi Rossiyada xorijda ishlaydi. Namanganda bo‘lib o‘tgan maslahatlashuvlar shuni ko‘rsatdiki, Madaniy Maorif mahallasida cheklangan gender normalari, qiyin iqtisodiy sharoitlar hamda dog‘ (stigma) va konservatizmning yuqori darajasi tufayli jiddiy ahamiyatga molik deb topildi. Toshkent viloyatida biz Bog‘iston mahalla fuqarolar yig‘inini uning olisda joylashganligi, infratuzilmaning yo‘qligi, xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi va jamiyatda qiziqish va ko‘nikmalarni amalga oshirish imkoniyatlari borligi tufayli tanladik.

Jamiyatning nizoli muammolarini tahlil qilish

Loyiha hamkorlari Istiqlol Avlodi va Istiqbolli Avlod tanlangan jamoalarning har birida nizolarni tahlil qilishdi. Biz quyida keltirilgan muammolarni mahalliy hokimiyat organlari, jamoat xavfsizligi bo'yicha ishchi guruhlar va jamoatchilik vakillari bilan bo'lgan muhokamalar natijasida aniqladik.

Oiladagi zo'ravonlik va zararli gender normalari:

Loyihaning barcha hududlarida zararli gender normalari oilalar ichida va tashqarisida zo'ravonlikning asosiy omili sifatida qaraladi. Zo'ravonlik ko'pincha erlar yoki erkak sheriklar-xotinlarga nisbatan yoki katta oila a'zolari tomonidan ayollarga nisbatan amalga oshiriladi. Jamoalar bilan suhbatlarimiz bunga gender normalari qanday ta'sir qilganini ta'kidladik: erkaklar oilaning boquvchisi, ayollar esa uy bekasi bo'lishi kutiladi va bu kuchli normalar chetga chiqishi bilan psixologik yoki jismoniy zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Ayollar ko'pincha ta'lim olish va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib, shu sababli iqtisodiy jihatdan ular erkaklarga ko'proq bog'lanib va tanqislikdan chiqib ketish imkoni kamroq bo'lishi mumkin.

Natijada erkaklar ko'pincha ish topa olmagan uchun ushbu normalar ta'sirida asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklariga yoki hech bo'lmaganda Janubiy Koreyaga ketishlarini ta'kidladilar. Uzoqlikdan bulgan munosabatlar ko'pincha o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, erkaklar ko'pincha boshqatdan turmush quradilar yoki boshqa ayol bilan munosabatda buladilar, bu esa ajrashish yoki ayollarni uyga ketishiga olib keladi va natijada ular farzandlarini yolg'iz tarbiya qilishlariga majbur buladilar. Hozirda daromad topishga, uy-ro'zg'origa g'amxo'rlik qilishga va bolalarni tarbiyalashga majbur bo'lgan ba'zi ayollar o'z farzandlarini tarbiyalashda faol ishtirok eta olmaydilar, bu esa qiyin uy sharoitlariga qolgan bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki yo'l-yo'riq hamda ta'lim olish imkoniyatlarining etishmasligiga olib kelishi mumkin. Xotinlar va onalar ba'zan o'zlarining katta oilalarining hurmatini qozonishadi, agar ular ta'lim olish yoki ishlash imkoniyatlarini ta'minlasa va oila byudjetiga hissa qo'sha olsalar, bu o'z navbatida yana gender normalari qiyinlashtirishi mumkin.

Uyga qaytgan erkaklar, agar ular cheklangan ish imkoniyatlaridan kelib chiqib, ish topa olmasalar, boquvchi va oila boshlig'i sifatidagi rollari bilan bog'liq savollarga duch kelishadi. Ushbu ijtimoiy umidlarni qondirish uchun ular daromad olishning boshqa vositalariga murojaat qilishlari mumkin, masalan, jamiyat

Loyiha hamkorlari

Istiqlol Avlodi – ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash markazi

Jizzax viloyatida joylashgan nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib 2003-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Uning faoliyat yo'nalishlari: odam savdosi, ijtimoiy va iqtisodiy masalalar, huquqiy ta'lim, inson huquqlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, advokatsiya dasturlarini amalga oshirish orqali odamlarning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Istiqbolli Avlod – Respublika ijtimoiy axborot markazi

(tarmoq, lekin Istiqlol Avlodidan alohida tashkilot) 2001 yilda tashkil etilgan va odam savdosiga qarshi kurashuvchi mamlakatdagi yetakchi nodavlat notijorat tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, u xavfsiz migratsiya, zo'ravon ekstremizmni oldini olish, OIV/OITS profilaktikasi, yoshlar yetakchiligi va volontyorlik, bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ham ishlaydi.

uchun xavfsizlikka putur etkazadigan jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish.

Namangan va Jizzaxliklarning aytishicha, beva ayollar yanada kuchliroq kamsitishlarga duchor bo'lishadi – ular iqtisodiy jihatdan erkaklarga qaram bo'lib, zarur malaka va tajribaga ega bo'lmagan holda erkak rolini bajarishga majbur bo'lishadi.

Kam maoshli, mavsumiy dala ishlariga murojaat qilgan ko'pchilik qo'shimcha xavfli muamolariga duch keladi. Erlari vafot etgan ayollar, xotinlari vafot etgan erkaklardan kura, jamoa tomonidan kamroq hamdardlik yoki yordam oladi, erkaklar esa jamiyatdan va oila a'zolaridan bolalarni tarbiyalashda, shuningdek, yangi xotin topishda ko'proq yordam oladilar. Aliment undirish yoki boshqa xizmatlar so'rab *hokimiyatga* murojaat qilgan ajrashgan ayollar, ayol jinsi bulgani va huquqlarini bilmasligi sababli e'tiborga olinmasligi mumkin.

Ushbu zararli gender normalari bo'yicha biz suhbatlashgan diniy yetakchilar (*imom-xatib yoki otinoyilar*), shuningdek, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan hamkorlik qilish muhimligini ta'kidladilar, zo'ravonliksiz munosabatlarning ahamiyati va ayollarga hurmat haqida suhbatlar o'tkazdilar.

Qizlarning oliy ta’lim olishi va ishga joylashish

huquqlarini cheklavchi normalar: Odamlar, ayniqsa, Jizzaxliklarning ta’kidlashicha, ta’lim olishni ko’pincha qizlarga xush kurmaydilar yoki ular uchun kirish qiyin, ota-onalarning farzandlariga bo’lgan umidlari bu o’g’il bolalarning ta’limi ustuvor kurishlari. Bunga qarshi chiqqan qizlar jamiyatda zo’ravonlik yoki kamsitishni boshqa shakllariga duch kelishadi. Qizlar ish izlashdan chetlanishgan; ularga “mos” deb hisoblangan ishga borishlari mumkin, ya’ni ular odatda hamshiralik yoki boshqa parvarish bilan bog’liq ishga boradilar, chunki ular bu ko’nikmalarni uy hayotida qo’llashlari mumkin deb o’ylashadi. Toshkent viloyatining Bog’iston mahallasida bitta maktab bor, o’qituvchilar yetishmaydi. Oliy ma’lumotga ega bo’lishning yagona yo’li Toshkent shahriga qariyb ikki soatlik yo’l bo’lib, shu sababdan ba’zi qizlar uzoq muddatga uydan uzoqda bo’lishadi. Bu uzoq masofani bosib o’ta olmaydigan yoki o’zini xavfsiz his qila olmaydigan yoki oilasi sayohat qilishdan qo’rqib maktabga bora olmaydigan qizlar uchun qo’shimcha to’siq yaratadi.

Eraklarning media savodxonligi pastligi:

Maslahatlashuvda Jizzaxdagi yigit va o’g’il bolalarning media savodxonligi pastligi (ommaviy axborot vositalariga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatining etishmaligi yoki yolg’on ma’lumotni tan olmaslik) masalasi ham ko’tarildi. Ishtirokchilarning ta’kidlashicha, ayollar va qizlarning internetdagi faolligini tez-tez kuzatib turadigan ota-onalar va katta akalari nazorati tufayli ular kamroq qabul qilinadi. Shu bilan birga, erkaklar va o’g’il bolalar Internetdan foydalanishda ko’proq erkinlikka ega bo’lishdi va ko’pincha zo’ravonlikka chaqiruvchi, jamiyatdagi an’anaviy yoki konservativ normalarni qo’llab-quvvatlovchi materiallarga duch kelishdi.

Xizmat ko’rsatuvchilar va aholining huquqiy savodxonligining pastligi:

Ishtirokchilar, ayniqsa, Namangan viloyatida xizmat ko’rsatuvchilar va aholi O’rtasida qonunni tushunmaslik yoki hurmat qilmaslik qator muammolarni, jumladan, zo’ravonlik, korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi choralar ko’rilmasligini ta’kidladi. Aytishlaricha, bu o’rta maktabda boshlanadi, unda bunday mavzularda cheklangan ma’lumotlar beriladi, korrupsiya yoshlikdan singdiriladi; masalan, talabalar ba’zan yaxshi baholar uchun pul to’lashlari kerak. Bir nechta misollar bu tezisini ko’rsatadi: er xotining nomidan qarz olib, ajrashib er Rossiyaga ketganidan so’ng, xotin katta qarzni to’lashi kerakligini bilib oladi. Yana bir misol, universitet talabasi o’z bilimi va qobiliyatini ko’rsatganiga qaramay, yaxshi baho olish uchun o’qituvchisiga pul to’lashga majbur bo’lib, jamiyatda “hamma narsani pul tuzatadi” degan fikrni mustahkamlaydi. Xuddi shu narsa ishga joylashish uchun ham amal qiladi, bunda ish izlovchilar yuqori mansab olish uchun murojaat qilgan tashkilot yoki agentlikka haq to’lashlari kerak, bu esa tengsizlik, adolatsizlik va norozilikni kuchaytiradi.



Toshkent viloyatining Bog’iston jamoat xavfsizligi bo’yicha ishchi guruh a’zolari resurs markazi oldida.

© Gulbahor Jumaboyeva/Saferworld

To’y va tadbirlarga ko’p mablag’ sarflanishi kamsitish va ruhiy zo’ravonlikka olib keladi (Namanganda):

So’nggi 20 yil ichida to’y va an’anaviy marosimlar musobaqaga aylanib, har bir oila bir-birlaridan “o’tib ketish” ga harakat qiladi, bu esa sarf-xarajatlar spiraliga olib keladi – dabdabali tadbirlar mahridan boshlab – bu oilalarni qarz va iqtisodiy jihatdan nochor qoldiradi. Namanganda taxlil ishtirokchilar bu harajatlarga mas’ul bo’lgan erkaklar ko’pincha qo’shimcha ishlar, jumladan, ko’proq pul topish uchun xorijga borishlarini ta’kidladilar. Bu jamiyatning hurmatini qozonish uchun qimmat to’y tashkil qilish uchun kuchli bosim bilan qo’llab-quvvatlanadi. Sovg’alar ham xuddi shunday talqin qilinadi – odamlar hurmat ko’rsatish uchun qimmatbaho sovg’alar berishga majbur bo’lishadi, bu esa ularni beqaror moliyaviy ahvolga soladi. Turmush qiladiganlar uchun kelin va kuyovga bulgan seplarni ko’proq mahalla ishlariga aylanib, jamoa birgalashib to’langan miqdorni baholaydilar yoki tanqid qiladilar, bu o’z hududida yoki kengroq jamiyatdagi ishtirokchilarning mavqeiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Ishga joylashish imkoniyatlarining yo’qligi:

Toshkentning Bog’iston mahallasida tahlil ishtirokchilari jinoyat sodir etuvchi omillardan biri ishsizlik ekanligini ta’kidladilar. Bu erkaklarning o’z oilasini “ta’minlash” ijtimoiy kutganlarini qondira olmasligi, psixologik bosim yoki doimo yaqin muhitda birga bo’lishlari sababli oiladagi nizolar, jumladan, oiladagi zo’ravonliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu, shuningdek, zo’ravon guruhlarda ishtirok etishning ko’proq zaifligiga olib kelishi mumkin (ham uyda va ham chet elda migrantlar ko’pincha ish izlanish jarayonida duch keladilar). Erkaklar odatda katta shaharlarga yoki Rossiyaga ish izlab sayohat qilishadi, ayollar esa himoyasiz, chunki ular bolalarni parvarish qilish xizmati etishmasligi tufayli uyda qolishga va farzandlarini tarbiyalashga majbur buladilar. Bog’istonga eng yaqin bolalar bog’chasi qo’shni qishloqda joylashgan bo’lib, bu esa qo’shimcha yulkira xarajatlarini talab qiladi, buni hamma ham ko’tara olmaydi. Iqtisodiy vaziyatni COVID-19 yanada og’irlashtirdi, bu kirib chiqish harakatini keskin cheklash, maxsulotlar kirishiga cheklanish, psixologik va jismoniy zo’ravonlikka olib keladigan kundalik hayotning keskin o’zgarishini anglatardi.



Jizzax viloyatidagi "Paxtakor" resurs markazida ayol tikuvchilik bilan shug'ullanmoqda.

© Shamsiya Raximshoyeva / Saferworld

Dilfuza hikoyasi: "Paxtakor"dagi kamsitishlarni yengish

Jizzax shahrida jamoat xavfsizligi bo'yicha ishchi guruhleri Dilorom va Oybek jamoalariga, ayniqsa Zarbdor va Paxtakor tumanlaridagi ayollarga psixologik bosimni kamaytirish, ularning istiqboli va mustaqilligini yaxshilash maqsadida yordam ko'rsatishga qaror qildi. Harakat rejalari jamiyatdagi zo'rvonlik va gender kamsitishlariga hissa qo'shadigan gender normalariga ta'sir ko'rsatish yoki ularga qarshi chiqishga qaratilgan. Guruhlar ayollarni foydali va mahalliy sharoitga mos keladigan kovnikmalarga o'rgatishdi (masalan, hunarmandchilik ichida uchrab turadigan tikuvchilik sohasi) hamda gender normalari va ayollar huquqlari, shu jumladan, an'anaviy ravishda "ayol vazifalari" deb hisoblanmaydigan sektorlarda imkoniyatlar yaratish va ayollar bandligi bo'yicha tashviqot ishlarini olib borishdi. Rejaning asosiy maqsadi bu ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishiga yordam berish va o'z jamiyatlaridagi ba'zi zararli normalarga qarshi kurash edi.

Dilfuza jamiyat a'zolaridan biri bo'lib, u jamiyatning qo'shimcha yordamidan foydalana oladigan kishi sifatida tanilgan. 2009 yilda Dilfuzaning turmush o'rtog'i taqiqlangan harakatlarda qatnashganlikda ayblangan. "O'n yil davomida barcha ro'zg'or yumushlarini o'zim zimmamga oldim, uch nafar farzandimni boqdim," – Dulfuzaning gapi buyicha. "Men hamma joyda ishladim – paxta zavodida, oshxonada, dehqonning qo'lida," – deydi u.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan bir necha yil o'tib, 2019-yilda uning turmush o'rtog'i afv etilgan edi. "[Prezident] mamlakatga sudlangan fuqarolarni, shuningdek, ularning oilalarini jamiyat hayotiga jalb qilishni aytdi." Ammo Dilfuza va uning oilasi

uchun vaziyat osonlashmadi, chunki ular kamsitish va shubha bilan kurashishda davom etishdi.

"Bizning oilamizga jinoyatchilardak munosabatda Bo'lishdi", deb eslaydi u. "Odamlar mendan qochishdi va to'y kabi tadbirlarga taklif qilishmadi. Odamlar hamma joyda devor o'rnatayotgandek tuyuldi, shuning uchun men ulardan uzoqlasha boshladim. Men tashqariga chiqishni xohlamadim." U o'z farzandlarining ham istiqboli yo'qligini va umrining ko'p qismini qoralanishini his qildi. Saferworldning hamkori Istiqlol Avlodi xodimlari uning uyiga bir necha bor tashrif buyurishganida, bolalar ko'chaga chiqishni istamasligini ko'rdilar.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishchi guruhi aloqa o'rnatishga qaror qildi. Ular kim ekanliklarini va unga qanday yordam berishlarini tushuntirishdi. Dilfuza asta-sekin ularga ishona boshladi va oldida turgan muammolar haqida ochiqroq gapira boshladi. U bilan maslahatlashgandan so'ng, guruh qo'shnilar va keng jamoatchilik bilan bag'rikenglik ahamiyati haqida gapira boshladi. "Ishchi guruh meni, turmush o'rtog'im va bolalarimni mahalladagi turli tadbirlarga taklif qilishdi," – deydi Dilfuza. "Pandemiya paytida ular menga davolanishga ko'maklashishdi va zarur mahsulotlarni sotib olishga yordam berishdi. O'tgan yili mahallamizda ishchi guruh tomonidan tashkil etilgan seminar va tadbirlarda qatnashdim. Men odamlar atrofida bo'lishdan kamroq uyaladigan bo'ldim. Ishchi guruh bolalarimni ham rohatlanib dam olishi uchun yozgi lagerga jo'natdi. Ular ham juda o'zgaragan. Odamlar menga jinoyatchi sifatida kamroq qarashadi – ular mening inson ekanligimni va mening oilam bu mahallaning bir qismi ekanligini ko'rishadi."

Zulfiya hikoyasi: Jizzaxdagi zo‘ravonlikdan qochish

“Men onam bilan Iroqqa otamni ko‘rgani borganimizda ikki yoshda edim,” dedi zo‘ravonlikdan qochib, u 2019-yilda Mehr-2 gumanitar operatsiyasi ostida O‘zbekistonga qaytgan. “Otam kuchli imonli edilar va turli zo‘ravon guruhlarning a‘zosi edilar. Onam va men bolaligimning ko‘p qismini jang zonasida o‘tkazishga majbur bo‘ldik. 2009 yilda otam jangda halok bo‘ldi. Onam boshqa odamga turmushga chiqdi va ukam tug‘ildi. Ammo oradan ko‘p o‘tmay uyimizni portlatishdi va o‘gay otam ham vafot etdi. Hammamiz jarohat oldik.”

2019-yilda Zulfiya O‘zbekistonning xorijda yashayotgan fuqarolarini vataniga qaytarish borasidagi harakatlarini eshitib, vataniga qaytishga qaror qildi. “Men vatanimga qaytdim, lekin onam va ukam Iroqda qolishdi. Onam qamoqda, ukam esa bolalar uyida va hozir hech kim uni qaerdaligini bilmaydi.”

Zulfiya Jizzaxdagi o‘z tumaniga qaytganidan keyin ham qiyinchiliklarga duch keldi. U keksa odamga “*nikoh*” orqali turmushga chiqdi, u unga yangi hayotni va‘da qilgan edi. “Ammo bunday bo‘lmadi, chunki turmush qurgandan keyin hayot yomonlashdi,” – dedi u. “U jismoniy va ruhiy jihatdan zo‘ravonlik qilaboshladi.”

Zulfiya Zarbdordagi xavfsizlik bo‘yicha ishchi guruhi orqali Istiqlol Avlodi boshpanasi borligidan xabar topdi, bu esa unga noqulay vaziyatdan qochib, oyoqqa turishi hamda turar joy bilan ta‘minlash imkon paydo qildi. “Men erimdan qochishga qaror qildim va vaqtincha boshpanada qolishni so‘radim.”

U boshpanada uch oydan ortiq qolib, psixologik yordam oldi, shuningdek, mahalliy monomarkazda (hukumatning ishga joylashishni kuchaytirish tashabbus doirasida tashkil etilgan markaz) kasbiy ta‘lim oldi. Shuningdek, u ijtimoiy xizmat xodimlaridan jamiyatga reintegratsiya bo‘yicha yordam va maslahatlar oldi. Eri uni bir necha bor qidirib kelgan, ammo ijtimoiy xizmat xodimlari uni qaytarib yuborishgan.

Ijtimoiy xizmatning yordami Zulfiya uchun vaqtinchalik yechim edi, lekin hayotining eng zarur bulgan vaqtida qulay keldi. U shunga o‘xshash vaziyatlarda boshqalarga yordam berishni xohlashini aytdi. U Istiqlol Avlodi bilan hamkorlikda xorijda qamoqqa olingan va kelajakdagi gumanitar operatsiyalar doirasida olib kelinishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlash ustida kumak berdi.



Jizzax shahri markazi yaqinida joylashgan masjid.

Naima hikoyasi: Namangandagi ayollarning moliyaviy mustaqilligi orqali kuchaytirish

Namangan shahridagi Jamoatchilik xavfsizligi bo‘yicha ishchi guruhi jamiyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga, shu jumladan qarindoshlari xorijdagi zo‘ravon guruhlariga qo‘shilib qogan oilalarga yordam ko‘rsatishga qaror qildi. Ular yordam davomida huquqiy ongini oshirish va ayollarga moliyaviy mustaqilligini oshirish uchun ko‘nikmalar berishdi.

Naima ajrashgan, kichkina o‘g‘li bor. Eridan ajralganidan keyin u ishsiz qolgan edi. Daromad yo‘qligi sababli u uyga qaytib, ota-onasi bilan yashashga majbur bo‘ldi, ular o‘zi og‘ir moliyaviy ahvolda edilar – otasining ko‘zlarini qobiliyati susaygan sababli ishlay olmasdi, onasining esa daromad manbai yo‘q edi. Ular oilada yana ikki kishini boqolmay qolishidan xavotirda edilar. Naimaning otasi qizining ish qidirishini istamasdi, chunki bu erkak kishining ishi, shuningdek, qizi va boshqa oila a‘zolarining obro‘sidan qo‘rqardi. Otasi qizining har kuni ko‘chaga chiqayotganini qo‘shnilar ko‘rib, nima qilgani, qayerga ketgani haqida mish-mishlar tarqalib ketishidan xavotirda edi.

Namangan xavfsizlig bo‘yicha ishchi guruhi avvalroq gender va nizolarni hal etish bo‘yicha treninglarda ishtirok etib, seminarlarda o‘rgangan ayrim usullardan foydalanib, Naima va uning ota-onasi bilan ayollarning o‘zini-o‘zi ta‘minlashi muhimligi haqida yaqindan ishlay boshladilar. Bir necha hafta davomida guruh uning otasi bilan uchrashdi, uning tashvishlarini tingladilar va mumkin bo‘lgan echimlarni muhokama qilishdilar. Yakunda Naimaning otasi qizini jamoat xavfsizlig bo‘yicha ishchi guruhi ko‘magida kiyim-kechak tikish tijorat firmasiga ishga joylashtirishga rozi bo‘ldi. Guruh

a‘zolari uni keyinchalik ko‘rganlarida, uning o‘ziga bo‘lgan ishonch ortkani, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik tomonidan yaxshilaganini aniqladilar. U yangi ishining bir qismi sifatida o‘zi ishlab chiqargan yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘rgan qo‘shnilari va jamoa a‘zolaridan shaxsiy buyurtmalar olishni boshladi. Do‘stlari doirasi kengayib, obro‘li insonga aylanganini his qildi. U ota-onasini moddiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlay boshladi.

“[Bundan oldin] u tushkunlikka tushgan edi,” deydi Naimaning onasi. “U hech kim bilan gaplashmasdi va tashqariga chiqishni ham istamasdi. U ajrashgan ayol maqomidan o‘zini noqulay va yolg‘iz his qilardi. U keyinchalik uyalmaslik kerakligini, o‘zi ishlab pul topish mumkinligini tushundi. Bu uning hayotini butunlay o‘zgartirdi.”

Ishchi guruhining xalq oldida (shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari) obro‘si oshib, unga yordam va maslahat so‘rab murojaat qiladiganlar ko‘paydi. Namangandagi guruhning muvaffaqiyat va e‘tirofning ortishi bilan, aholining eng katta ehtiyojlarini aniqlash maqsadida ishchi guruh so‘rov o‘tkazdi va natijada yoshlarning zo‘ravonlik va zararli gender normalari masalasi va ichki muammolarini hal qilish uchun qo‘shimcha 100 000 000 so‘m (taxminan 9 100 AQSh dollari) loyiha tuzub Oliy Majlisga murojaat qildi. “Bunday loyihani men kutmaganedim,” – deydi Istiqbolli Avlod Namangan filiali Direktori Ra‘no Nuriddinova. “Odatda aholi moddiy-texnik yordam so‘raydi, lekin bu mahalla faollari e‘tiborni ijtimoiy masalalarga qaratmoqchi bo‘ldi.”



Namangan viloyatining xavfsizlig ishchi guruhi a‘zolari bilan resurs markazining kelgusi rejalarini muhokama qilmoqda.



Toshkent viloyatining Bog‘iston xavfsizlig bo‘yicha ishchi guruh raisi Shavkat Nishonov harakat rejasi doirasida infratuzilmani yaxshilash ishlarini boshqa a‘zolari bilan muhokama qilmoqda.

© Maftuna Nuhridinova

Shavkat hikoyasi: hokimiyatning etiborini Bog‘iston xavfsizligiga jalb etish

Mahallaning muammolar tahlili asosida Toshkent viloyatining Bog‘iston mahallasida xavfsizlig bo‘yicha ishchi guruhi xotin-qizlarning iqtisodiy masalasida malakasini oshirish va bandligini ta‘minlash uchun harakat rejasini tashkil qildi. Ular har qanday norozilikni bartaraf etish uchun ishtirokchi ayollarning oilalari bilan ishladilar. Guruh, shuningdek, ayollar va ularning oilalari uchun tadbirkorlik va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun mahalliy hokimiyat organlarini jalb qilishga qaror qildi.

Bog‘iston kichik va tashqi dunyo bilan aloqasi cheklangan olis jamoadir. Bunga sabab infratuzilmaning sust rivojlangani va yashash imkoniyatlarining tanqisligi buladi. Ishchi guruh a‘zolari shuni takidladilar ki JT vakillari bilan muammolarni taxlil qilish jarayonida a‘zolar bu ishlarni samaraliy bulishiga ishonmasedi. Hamkorimiz Istiqbolli Avlod dastlab Bog‘istondagi mahalla fuqarolar yig‘ini bilan maslahatlashganida, ular qarshilik va shubha bilan kutib olishdi. Biroq mahalla xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruhiga rahbar etib saylangan Bog‘iston mahalla fuqarolar yig‘ini raisi va xavfsizlig b‘oyicha ishchi guruh raisi Shavkat Nishonov ko‘ngilsizliklardan ko‘ra foyda ko‘p bo‘lishiga boshqalarni ishonitirdi. “Ushbu loyiha haqiqatan ham o‘z vaqtida amalga oshirilmoqda va jamiyatimiz uchun juda

zarur, chunki biz har xil qiyinchiliklarga duch kelamiz,” dedi u. “Bu ehtiyojlar infratuzilma va bandlikdan tortib, ta‘lim muassasalarigacha juda zarur.”

Taxminan shu davrda Bog‘iston “*Obod mahalla*” davlat dasturi doirasida investitsiya oladigan mahallalar ro‘yxatiga kiritildi. Bunday uzgarishlar xavfsizlig bo‘yicha ishchi guruhi jamiyat xavfsizligi bo‘yicha treninglar, genderga xasos bulgan nizoliy masalalarni tahlil qilishva hokimiyat bilan birga advokatsiya o‘tqazish ishlari vaqtida sodir bo‘ldi. Shavkat ana shu yondashuvlardan foydalangan holda mahalla fuqarolar yig‘inining muammolarini bevosita “*Obod mahalla*” dasturiga aloqador mutasaddilar, ya‘ni turistik politseysiga yetkazdi, toki ular jamoaga ko‘chalarni yoritish uchun mablag‘ ajratsin. Shavkat sug‘orish kanallari va yoshlar uchravushlari uchun qulay maktab kutubxonasini ta‘mirlash uchun ham mablag‘ qidirdilar.

Bog‘istonda anchadan buyon bunday ishlar amalga oshirilmagan edi, lekin Shavkatning hukumat bilan targ‘ibot olib borgan ishlari orqali asosiy va kichik yo‘llarga asfalt yotqizildi, avtomobillar o‘tishi osonbulishi uchun, avariya va sirpanish xavfi ham kamaydi. Yangi sug‘orish kanallari bahor va kuzda kuchli yomg‘irdan suv toshishi xavfini kamaytiradi, ko‘chalar chiroqlari esa tungi vaqtda jinoyatlar sodir bo‘lish xavfini kamaytirdi.



Loyihaning hududlardagi xavfsizligi ishchi guruhlariga Toshkentdagi milliy konferentsiyada hukumat vakillari, jamoat tashkilotlari va hokimiyat vakillari bilan uchrashdilar.

© Olimjon Xoliqov/Istiqloq Avlodi

Xulosa va tavsiyalar

O‘zbekiston jamiyat uchun yanada ochiq imkoniyat yaratish va o‘z xalqining ehtiyojlarini tinglash, iqtisodiy, mehnat, tashqi siyosat va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda ulkan yutuqlarga erishdi. Biroq, aholi bilan faolroq maslahatlashish zarur, chunki tinch va inklyuziv mamlakat sari yanada olg‘a siljish uchun, fuqarolarni eshitish va muammolar nizolarga olib keladigan norozilikka aylanmasdan oldin hal etilishi muhim. Hukumat Prezident Mirziyoyevdan boshlab, jamoat xavfsizligini ta‘minlash mamlakat taraqqiyoti va uning istiqboldagi yo‘nalishining asosiy tayanchlaridan biri bo‘lishi kerakligini ta‘kidlab, bu boradagi taraqqiyotga ko‘maklashish maqsadida bir qancha farmon va strategiyalar, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlashga inklyuziv uslubini qabul qildi.⁴ Lekin, hukumatning turli darajalarida amalda qo‘llash muammo bo‘lib qolmoqda. Agar jamoat tashkilotlari uchun kengroq imkoniyatlar berilsa – hukumat bilan hamkorlikda – jamoat tashkilotlari hukumat bilan jamoa orasida ko‘prik bo‘lishi mumkin. Jamoat tashkilotlari o‘z ishlarini erkin va hukumat ko‘magida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan muhitda bu loyihada bo‘lgani kabi, jamoat xavfsizligi bo‘yicha ishchi guruhlar mahalliy hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda – ular odamlar bilan yaqin va ishonchli munosabatlarni saqlab qolishadi, muammolarni chuqur urganib chiqib va innovatsion yechimlarni takliflar beradi. Tinchlikni o‘rnatish vosita va uslublari jamoa muammolarini zo‘ravonlikga olib keladigan sabablarini jamoa va hokimiyat ishtirogida aniqlaydi hamda birgaligida tahlil qilib mojaro va notinchlikka olib keladigan ildizlarni bartaraf etadi. Ammo, mamlakatimizda bu masala tajribaga ega bo‘lgan

ijtimoiy tashkilotlar kam va bunday tushunchalardan xabardorlik darajasi past qolmoqda.

O‘zbekistonda jamoat tashkilotlari, jamiyat va davlat institutlarining tinchlik o‘rnatish va uning uslublari to‘g‘risida yetarlicha tanish bulmagan bo‘shliqni bartaraf etish uchun biz quyidagi tavsiyalarni tayyorladik. Ular brifingda tasvirlangan nizolarni tahlil natijalariga hamda Jizzax, Namangan va Toshkent viloyatlardagi Istiqloq Avlodi va Istiqbolli Avlod hamkorlar bilan o‘tkazilgan jamoat xavfsizligi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha tajribamizga asoslangan.

1. Barcha darajadagi davlat institutlari fuqarolarning kundalik muammolarini hal etishda jamoat tashkilotlarini o‘rni muhim deb tan olishi va hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga faol intilishi kerak. Mojaro yoki tartibsizliklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan ko‘plab keskin vaziyatlarni hukumat idoralari bilan hamkorlik qiluvchi jamoa platformalari yordamida mahalliy tashabbuslar orqali avj olishdan oldin hal qilish mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari birgalikda harakat rejalari ustida hamkorlikda ishlab va muloqotga ko‘maklashishi, jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruhlar qo‘shma platformalarini qo‘llab-quvvatlashi yoki ular yo‘q bulsa yangi yaratishi lozim. Hukumat yordamida jamoat tashkilotlari yoki hamjamiyat tashabbuslarini moliyalashtirishni, shuningdek, qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy malaka almashuv tadbirlar uyushtirish mumkin.

2.

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy darajada aniqlangan muammolarni hal qiluvchi harakat rejalarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ushbu hamkorlik platformalari bilan ishlashi kerak. Bunday rejalar ustida birgalikda ishlash jarayoni jamoalarda ishonchni mustahkamlaydi va natijalar odamlarning kundalik hayotiga kuchli ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

3.

Hukumat va jamoat tashkilotlari jamoa muammolarini tinglab va o‘z tashabbuslari to‘g‘risida hisobot berib – hamkorlik uchun aloqalar va imkoniyatlarni izlashda “Hisobdorlik kunlari” orqali jamoalar bilan muntazam, gender masalasi va inklyuziv maslahatlashuvlar o‘tkazishda hamkorlik qilishlari talab etiladi.

4.

Zaif guruhlarini, ayniqsa ayollar, qizlar va qaytib kelganlarni qo‘llab-quvvatlash zo‘ravonlik ta’sirini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ushbu loyihada biz hamkorlik qilgan jamoat xavfsizligi bo‘yicha ko‘plab ishchi guruhlar ayollarning moliyaviy mustaqilligiga e’tibor qaratgan, bu esa ayollarga, zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan muhitni tark etishga yoki cheklovchi gender masalasi bilan bog‘liq boshqa to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beradi. Biroq, bunday tashabbuslarni boshlashdan oldin, xavf yoki norozilikni kamaytirish uchun jamoa vakillari bilan maslahatlashish kerak. Gender normalarini keng davrada muhokama qilsakda o‘qiydigan yoki ishlaydigan ayollarimizni qarindoshlari va qo‘shnilari tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishiga yordam beradi va norozilik xavfini kamaytiradi, masalan, ular qullamaslik his qilish sabablaridan biri gender normalari yoki tashqi qadriyatlar yuklangan deb hisoblaydilar. Asosiy e’tibor nafaqat ayollarning tengligi, balki erkaklar zo‘ravonligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan mardlik xatti-harakati bilan bog‘liq bosimlarga ham qaratilishi kerak.

5.

Oiladagi zo‘ravonlik holatlariga javob berish yoki zaif oilalarga xavfli vaziyatlardan chiqishga yordam berish uchun boshpanalarga ham yordam kerak. Ushbu boshpanalar ayollar bilan yoki qaytib kelganlar va boshqa zo‘ravonlik qurbonlari kabi zaif guruhlar bilan ishlay oladigan psixologlar va ijtimoiy xodimlardan katta yordam beradi. Ruhiy salomatlik kumak beradigan hodimlar ko‘prog‘ psixologik birinchi yordam va jarohatli holatlarda qanday ishlash bo‘yicha qo‘shimcha treninglarga muhtoj.

6.

Xalqaro donorlar va tashkilotlar (kerak bo‘lsa, davlat idoralari) huquqni muhofaza qilish organlari va mahalliy institutlarning jamoalar bilan yanada samarali o‘zaro aloqada bo‘lishiga yordam beradigan bir qator vositalarda salohiyatini oshirishga harakat qilishlari kerak. Masalan, bu militsiya akademiyalarida o‘qitish yoki mahallalar va boshqa mahalliy hokimiyat organlari bilan gender masalasi va nizolarga sezgirlik, jamoat

xavfsizligi, muloqot, nizolarni tahlil qilish va harakatlar rejasini ishlab chiqish bo‘yicha maxsus treninglar bo‘lishi muhim. Xalqaro donorlar va tashkilotlar, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan, shu jumladan Qirg‘iziston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bilan o‘xshash voqealarni boshdan kechirgan bilim va muammolarni borasida tajriba almashishga yordam berishi mumkin.

7.

Zo‘ravon guruhlar haqida gap ketganda, javoblar kontekstga e’tiborliroq bo‘lishini va muammoni yanada kuchaytirmasligini ta’minlash kerak. Asosiy e’tibor zo‘ravon guruhlarini qo‘llab-quvvatlashga olib kelishi mumkin bo‘lgan istisno, chetlanish, adolatsizlik yoki boshqa shikoyatlar kabi sabablarga qaratilishi kerak. Masalan ko‘p mamlakatlarda hukumatning harakatlari omillarga bulgan, ayniqsa kuchli diniy e’tiqodlarga tor doirada qarasa, ko‘pincha bunday harakatlar birinchi navbatda zo‘ravon guruhlarini asosi bu istisno yoki stigmatizatsiya tuyg‘ulari chuqurlashishini ko‘rsatadi. Hamkorlikni jamoat tashkilotlari va inklyuziv guruhlari muhim deb bilishi kerak, chunki ular turli fikrlarni ifodalab, zo‘ravonlikning asosiy sabablarini bartaraf etish bo‘yicha oldindan harakat rejalarini tuzadilar.

8.

Hukumat idoralari va donorlar ham moddiy yordam ko‘rsatish (jihoz va xonalar kabi) orqali, kelajakdagi ishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali ham jamoat tuzilmalariga sarmoya kiritishda davom etishlari kerak. Misol uchun, bu advokatsiya utkazish mahoratlarini kuchaytirish, shunda jamiyat vakillari o‘z jamoalarida ishlashni davom ettirish va hamkorlik platformalarini qo‘llab-quvvatlash uchun mahalliy hukumatlardan mablag‘ so‘rashlari oson buladi.

9.

Mojarolar dinamikasini yaxshilash yoki yomonlashtirishi mumkin bo‘lgan ommaviy axborot vositalari jamiyat duch kelayotgan ayrim muammolar to‘g‘risida har tomonlama va faktlar bilan tekshirilgan ma’lumotlarni taqdim etishda, shuningdek, ularni hal etish yo‘llarini muhokama qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Shu munosabat bilan, hukumat ommaviy axborot vositalariga odamlarning muammolari haqida ochiq xabar qilishlari uchun imkoniyatlar berishni davom ettirishi kerak, xalqaro donorlar esa, treninglar nizo sezgirligi to‘g‘risida o‘tkazish yoki ilg‘or tajriba almashishiga yordam berishni davom etishi muhim.

10.

Hukumat yaqinda Prezident tomonidan imzolangan “jamoat xavfsizligi” konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlarni – xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari va hukumatlararo tashkilotlarni faol jalb qilishi kerak. Bunday xalqaro tashkilotlar va davlat idoralari, shuningdek, tegishli guruhlar va jamoat tashkilotlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirishga yordam beradi.

Eslatmalar

- 1 Gazeta.uz (2021), 'Более 90 женщин и детей возвращено из Сирии', 30 April (<https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/30/mehr-5/>)
- 2 Farrell W, Burnashev R, Azizi R, Babadjanov B (2021), 'Processes of Reintegrating Central Asian Returnees from Syria and Iraq', United States Institute of Peace, July.
- 3 Orozobekova C et al. (2021), 'The Repatriation, Rehabilitation and Reintegration of Women and Children from Syria and Iraq: The Experiences of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan', Bulan Institute for Peace Innovations, June.
- 4 For example, see the President's decree on the realisation of the concept of community security: Указ Президента Республики Узбекистан (2021), 'О мерах по утверждению и реализации концепции общественной безопасности Республики Узбекистан'.

Saferworld haqida

Saferworld mustaqil, notijorat xalqaro tashkilot bo'lib, Afrika, Osiyo hamda Yaqin Sharq mamlakatlari va hududlarida zo'rvonlik jinoyatlarining oldini olish va xavfsiz hayotni barpo etish bilan shug'ullanadi. Biz jinoyatdan jabrlangan odamlarning xavfsizligi va xavfsizlik hissini yaxshilash uchun ular bilan birdamlikda ishlayamiz, kengroq tadqiqotlar va tahlillar olib bormoqdamiz. Biz bu ma'lumotlar va bilimlardan barqaror tinchlik o'rnatishga yordam beradigan mahalliy, milliy va xalqaro siyosat va amaliyotlarni yaxshilash uchun ishlatamiz. Bizning ustuvor vazifamiz – odamlar. Biz har bir inson qo'rquv va ishonchsizlikdan xalos bulgan, tinch hayot kechirishi mumkin bo'lgan dunyoga ishonamiz.

Tashqi sur'at: Paxtakor tumanidagi xavfsilik b'oyicha ishchi guruh a'zolari resurs markazida hamkorlik rejasini muloqot qilmoqda.

© Olimjon Xoliqov/Istiqol Avlodi



SAFERWORLD

Saferworld
Brick Yard, 28 Charles Square
London N1 6HT, UK
Phone: +44 (0)20 7324 4646
Email: general@saferworld.org.uk
Web: www.saferworld.org.uk
 www.facebook.com/Saferworld
 @Saferworld
 Saferworld

Registered charity no. 1043843
A company limited by guarantee no. 3015948



UNITED STATES
INSTITUTE OF PEACE
Making Peace Possible